

**SHVEYSARIYA KONFEDERATSIYASI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIGI YUZASIDAN QIYOSIY  
HUQUQIY MAQOLA**

**Karimova Feruza Sanjar qizi.**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq"*

*fakulteti 2-bosqich talabasi*

*Tel: +998 (77) 130-20-06*

*email: [sanjarmahmatqulov5@gmail.com](mailto:sanjarmahmatqulov5@gmail.com)*

*Ilmiy rabar: Soliyev Dilshod Baxtiyor o'g'li*

*JIDU Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasida katta o'qituvchisi*

*email: [dsoliyev9610@gmail.com](mailto:dsoliyev9610@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Shveysariya Konfederatsiyasining jinoyat-protsessual qonunchiligi qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot markazida sudga qadar ish yuritishni tamomlash bosqichida prokurorni vakolatlari va Shveysariya huquq tizimidagi o'ziga xos "jazo buyrug'i" (penalty order) instituti turadi. Izlanishlarim davomida men amaldagi milliy qonunchilikda sudlarni haddan tashqari ko'p yuklamasi haqidagi muammolarni o'rganib, protsessual tejamkorlik tamoyili asosida Shveysariya tajribasini tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rib chiqdim. Maqola yakunida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar haqida prokurorga cheklangan doirada jazo tayinlash vakolatini berish va sud nazorati ostidagi soddalashtirilgan mexanizmlarni joriy etish masalasida ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** jinoyat-protsessual huquqi, qiyosiy tahlil, prokuror vakolatlari, jazo buyrug'i, sudga qadar ish yuritish, protsessual tejamkorlik, sud yuklamasi, Shveysariya tajribasi.

**Abstract:** This article provides a comparative legal analysis of the criminal procedural legislation of the Republic of Uzbekistan and the Swiss Confederation. The focus of the research is on the powers of the prosecutor at the stage of completing pre-trial proceedings and the specific institution of the "penalty order" (Strafbefehl) in the Swiss legal system. The author examines the challenges in the current national legislation related to the excessive workload of courts and explores the possibilities of implementing the Swiss experience based on the principle of procedural economy. The article concludes with scientific and practical proposals for granting prosecutors limited sentencing authority for crimes that do not pose a high social risk and introducing simplified mechanisms under judicial supervision.

**Keywords:** *criminal procedural law, comparative analysis, prosecutor's powers, penalty order, pre-trial proceedings, procedural economy, court workload, Swiss experience.*

**Аннотация:** *В данной статье проведен сравнительно-правовой анализ уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан и Швейцарской Конфедерации. В центре исследования находятся полномочия прокурора на стадии завершения досудебного производства и специфический институт швейцарской правовой системы — «приказ о наказании» (penalty order). В ходе исследования я изучил проблемы чрезмерной загруженности судов в действующем национальном законодательстве и рассмотрел возможности применения швейцарского опыта на основе принципа процессуальной экономии. В заключении статьи представлены научно-практические предложения о предоставлении прокурору ограниченных полномочий по назначению наказания за преступления с невысокой социальной опасностью и внедрению упрощенных механизмов под контролем суда. Ключевые слова: уголовно-процессуальное право, сравнительный анализ, полномочия прокурора, приказ о наказании, досудебное производство, процессуальная экономия, нагрузка на суды, Швейцария.*

### **Kirish**

Ushbu maqolada huquqiy tahlilda mamlakatimiz jinoyat protsessual qonunchiligini Shveysariya davlati qonunchiligiga taqqoslagan holda ular o'rtasidagi farqli jihatlaridan kelib chiqib qonunchiligimizga yangi amaliy taklif bermoqchiman. Tahlil uchun Shveysariya davlatini tanlaganimning asosiy sababi men bu davlatni qonunchiligini ma'muriy huquq, fuqarolik va oila huquqi hamda jinoyat huquqi doirasida keng o'rganib chiqqanman. Bu narsa esa protsessual huquqni yanada yaxshiroq tahlil qilishda yordam beradi deb o'yladim. Maqolamning asosiy maqsadi ham protsessual qonunchiligimizdagi mavjud kamchiliklarni topish va potensial ijobiy natijaga erishish mumkin bo'lgan taklif taqdim qilishdir. Endi esa tahlilning asosiy qismida JPK maxsus qismi 9-bo'lim yani ishni sudga qadar yuritish va uni tamomlash mavzulari doirasida (asosan sudya va prokuror kabi mansabdor shaxslar vakolatlari doirasida) Shveysariya qonunchiligining aynan shu masalada qanday protsessual harakatlar amalga oshirilishini ko'rib chiqamiz.

### **Asosiy qism**

Ushbu maqola uchun tanlangan mavzu Jinoyat-protsessual huquqida ishni sudga qadar yuritish va uni tamomlashga to'g'ri keladi. Aynan shu mavzu Shveysariya jinoyat-protsessual tizimidagi "jazo buyrug'i" institutiga mos keladi, hamda bizni qonunchilikdagi an'anaviy ayblovl xulosasi asosida ishni sudga yuborish modeli bilan solishtirish uchun asosiy tahlil obyekti bo'la oladi.

Birinchiidan, JPK maxsus qismi 9-bo'limiga qaraydigan bo'lsak ikki davlat tizimi o'rtasida sezilarli farqlarni ko'ramiz. Misol uchun, 382-moddaga ko'ra bizda prokurorning vakolatlari ko'p bo'lgani bilan nisbatan cheklangan bo'lib u faqat ishni tugatish yoki sudga yuborish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Jinoyat uchun jazo tayinlash esa faqat sud vakolatiga kiradi va bu konstitutsiyaviy prinsip sifatida ham mustahkamlangan. Shveysariyada esa Swiss CrimPC<sup>1</sup>ning 8-bo'limi "Special Procedures"<sup>2</sup> deb nomlangan bo'lib unda sudgacha bo'lgan alohida protsessual harakatlar belgilangan. Masalan, 355-moddasida prokurorning vakolatlari biznin kodeksga taqqoslaganda sal kengroq bo'lib unga ko'ra prokuror(publik prosecutor) ishni tugatish yoki sudga yuborish bilan birga ba'zi hollarda mustaqil ravishda jazo tayinlashi ham mumkin. Bu esa prokurorga "kvazi-sudyalik" maqomini beradi. Jazo tayinlash masalasiga kelsak bizda har qanday holatda ham yakuniy qarorni sud chiqaradi. Hatto ayblanuvchi o'z aybini tan olib yetkazilgan zararni qoplagan taqdirda ham ish sudga yuboriladi<sup>3</sup>. Shveysariyada esa agar ish holatlari aniq bo'lsa va ayblanuvchi aybiga iqrorga bo'lsa sud muhokamasi umuman o'tkazilmasligi mumkin. Aynan shunday holatda Swiss CrimPC 354-moddasiga ko'ra prokuror jazo buyrug'ini chiqara oladi va bu qarorga 10 kun ichida ayblanuvchi yoki uning himoyachisi tomonidan e'tiroz(rejection) bildirilmasa, prokuror qarori sud hukmiga tenglashtiriladi. Shuningdek, 352-moddasi<sup>4</sup>ga ko'ra prokuror tergov yakunida dalillarni yetarli deb topsa yoki ayblanuvchi aybiga iqrorga bo'lganda ham jazo buyrug'i chiqarish huquqiga ega. Bu jarayon sud ishtirokisiz amalga oshiriladi. Prokuror yozma dalillar asosida qaror qabul qiladi va ba'zi holatlarda ayblanuvchini chaqirmasdan ham jazo tayinlashi mumkin. Xuddi shu moddada jazo turlari ham aniq belgilangan. Bular jarima, 6 oydan oshmaydigan qamoq yoki 180 kungacha axloq tuzatish ishlarini tashkil qiladi. Yuqorida aytib o'tganimday agar prokurorni qaroriga 10 kun ichida e'tirozlar bildirilmasa u avtomatik sud hukmiga tenglashtiriladi va ijro etilishi ta'minlanadi.<sup>5</sup>

O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida esa dastlabki tergovni tamomlashning an'anaviy modeli bor. Unga ko'ra ishni tugatish faqat qonunda ko'rsatilgan asoslar mavjud

<sup>1</sup> Swiss Criminal Code - Shveysariya Jinoyat-protsessual kodeksi 2007-yil 5-oktabrda qabul qilingan.

<sup>2</sup> [Title 8 Special Procedures Summary Penalty Order Procedure, Contravention Procedure](#)

<sup>3</sup> Aybsizlik prezumtsiyasi - Konstitutsiya 28-modda, JPK 23-modda.

<sup>4</sup> If the accused has accepted responsibility for the offence in the preliminary proceedings or if his or her responsibility has otherwise been satisfactorily established, the public prosecutor shall issue a summary penalty order if, having taken account of any suspended sentence or parole order that must be revoked, it regards any of the following sentences as appropriate: a) fine; b) a monetary penalty of no more than 180 daily penalty units; c) a custodial sentence of no more than 6 months.

<sup>5</sup> [Swiss Criminal Procedure Code of 5 October 2007 \(Criminal Procedure Code, CrimPC\)](#) Art. 354 Rejection 1A written rejection of the summary penalty order may be filed with the public prosecutor within 10 days by: a. the accused; abis.250 the private claimants; b. other affected persons; c. if so provided, the Office of the Attorney General of Switzerland or of the canton in federal or cantonal proceedings respectively. 1. A private claimant may not contest the sanction imposed in a summary penalty order. 2. A rejection other than that made by the accused must be accompanied by a statement of grounds. 3. Unless a valid rejection is filed, the summary penalty order becomes a final judgment.

bo'lganda amalga oshiriladi yoki ish ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan sudga yuboriladi. Hattoki soddalashtirilgan tartiblar masalan, aybiga iqrorlik haqida kelishuv(62<sup>1</sup>-bob) yoki yarashtirish institutlari bor bo'lsa ham, ular yakuniy qaror qabul qilish vakolatini suddan olib qo'yolmaydi. JPK 388-moddaga ko'ra esa prokuror faqat sudga ish bilan birga sud majlisida tekshirish va hal etish uchun iltimoslar va shikoyatlar yuborishi mumkin lekin o'zi jazo tayinlay olmaydi.

Ko'rinib turganiday bu modelning asosiy kamchiligi ham sudga ortiqcha yuklama bo'lib, unda ko'riladigan ishlarni sonini ko'paytirib yuborishidir. Oddiy, murakkab va bahsli tomonlari kam bo'lgan ishlar ham sudda ko'rilishi sud resurslarini samarasiz taqsimlanishiga olib keladi. Natijada sudlar murakkab va ijtimoiy ahamiyatga ega ishlar o'rniga texnik xarakterdagi ishlar bilan band bo'lib qoladi.

Shveysariya tajribasi esa aksincha, protsessual iqtisod va samaradorlik tamoyillariga asoslanadi. Yuqorida tushuntirib o'tilgan jazo buyrug'i instituti orqali oddiy ishlar tez va kam xarajat bilan yakunlanadi, sudlar esa faqat bahsli va murakkab ishlarni ko'rib chiqishga vaqt sarflaydi. Shuningdek, ayblanuvchini huquqlari ham himoyasiz qolmaydi chunki unda har doim belgilangan muddat ichida e'tiroz bildirish orqali ishni sudga o'tkazish huquqi saqlanib qoladi.

Takliflarga kelsak, tahlil asosida prokurorga cheklangan doirada (ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar uchun) jazo tayinlash vakolatini berish, soddalashtirilgan ishlar uchun sudgacha yakunlash mexanizmlarini kengaytirish va bir paytda sud nazoratini e'tiroz mexanizmi orqali saqlab qolish taklifini kiritmoqchiman. Bu bilan Shveysariya modeli O'zbekiston uchun to'liq ko'chirib olish kerak demoqchi emasman, biroq uning ayrim elementlari ayniqsa jazo buyrug'i institutini qonunchiligimizga kiritish nafaqat sudlov tizimini samaradorligini oshiradi balki milliy huquq tizimini modernizatsiya qilishda muhim bir qadam bo'lishi mumkin. Taklifni amalda joriy qilish uchun birinchi o'rinda qonuniy asos kerak. Shuning uchun JPK tergovni tamomlashga oid va prokuror vakolatlari bilan bo'g'liq boblariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish o'rinli bo'ladi. Bunda asosiy e'tibor protsessual iqtisod, tezkorlik va inson huquqlarini muhofaza qilish tamoyillari asosida bo'lishi kerak.<sup>6</sup>

Bilamizki, amaldagi tizimda prokuror faqat ayblov funksiyasini bajaradi va yakuniy jazo tayinlash vakolatiga ega emas. Taklif etilayotgan modelga ko'ra esa faqatgina ijtimoiy

<sup>6</sup> The summary penalty order contains: a. the name of the authority issuing the order; b. the name of the accused; c. a description of the act committed by the accused; d. the offence constituted by the act; e. the sanction; f. notice of the revocation of a suspended sanction or of parole with a brief statement of the reasons; the date on which any DNA profile created must be deleted; g. the costs and compensation due; h. details of any seized property or assets that are to be released or forfeited; i. reference to the possibility of rejecting the order and the consequences of failing to reject the order; j. place and date of issue; k. the signature of the person issuing the order. 2. The public prosecutor may decide on the civil claims in the summary penalty order procedure provided the accused has accepted the claims or provided: the claims may be assessed without taking further evidence; and the amount claimed does not exceed 30 000 francs. 3. Immediate written notice of the summary penalty order shall be given to persons and authorities who are entitled to reject the order.

xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar bo'yicha ayniqsa ayblanuvchi o'z aybini tan olgan va yetkazilgan zararni qoplagan holatlarda prokurorga mustaqil ravishda jazo tayinlash vakolatini berish kerak. Bunda jazo turlari qat'iy belgilanishi masalan, jarima yoki ozodlikni cheklash bilan chegaralanishi ham muhim. Eng muhimi bu vakolat faqat ayblanuvchining roziligi asosida amalga oshirilishi kerak, bu esa uni huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Taklifning davomi sifatida **sud nazorati ostidagi prokuror qarori mexanizmini** joriy etishni maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu yondashuv potensial korrupsiya holatlarini oldini olgan holda prokurorga kengroq vakolat bergan holda sud nazoratini ham saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni prokuror tomonidan chiqarilgan jazo buyrug'i majburiy tarzda sudga yuboriladi, agar ayblanuvchi yoki boshqa manfaatdor shaxslar belgilangan muddat ichida e'tiroz bildirishmasa, sudya ushbu qarorni sirtqi tartibda taraflarni chaqirmasdan ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi. Shu orqali bir tomondan protsess tezlashtiriladi, ikkinchi tomondan esa sudni yakuniy nazorati saqlanib qoladi. Agar ayblanuvchida e'tiroz bor bo'lsa, ish odatdagi tartibda sud muhokamasiga o'tkaziladi.

Bu taklifni yana bir ijobiy tomoni u protsessual tejamkorlikni ta'minlashga qaratilgan. Hozirgi tizimimizda hatto eng oddiy ishlar ham sud orqali ko'rib chiqilishi shart va bu sudlar yuklamasini ortib ketishiga olib keladi. Ushbu taklif joriy etilgan taqdirda esa aynan ijtimoiy xavfi katta va murakkab bo'lmagan ishlar sudgacha yakunlanadi. Natijada sudlarga tushadigan ishlar soni ancha kamayadi va sudyalarda o'z e'tibori va kuchini jiddiyroq va murakkabroq jinoyatlarga qaratish imkoniga ega bo'ladi. Bu narsa ishlarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirib, sud qarorlarini sifatini ham oshiradi.

Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin: *prokurorga jazo tayinlash vakolatini berish inson huquqlarini buzilish holatlarini yuzaga keltirmaydimi?* Bunday holatlarni oldini olish uchun aniq protsessual kafolatlar belgilanishi kerak. Masalan, ayblanuvchiga unda himoyachidan foydalanish huquqi, qaror ustidan e'tiroz bildirish imkoniyati va sud nazorati mavjudligi haqidagi huquq to'la tushuntirilib o'tilishi shart.

**Prokurorga jazo tayinlash vakolatini berishda korrupsiya va inson huquqlari buzilishining oldini olish mexanizmlari.**

Yuqorida ko'rilgan prokurorga ayrim toifadagi jinoyatlar bo'yicha jazo buyrug'i chiqarish vakolatini berish masalasi jinoyat-protsessual tizimni soddalashtirish va sudlarning ish yuklamasini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq bunday vakolatni joriy etish prokurorga cheklanmagan hokimiyat berishni anglatmaydi. Aksincha, ushbu tizim faqat qat'iy protsessual nazorat va samarali himoya mexanizmlari mavjud bo'lgan taqdirdagina adolatli hamda xavfsiz ishlashi mumkin. Shu sababli korrupsiya, vakolatni suiiste'mol qilish va inson huquqlari buzilishining oldini olish maqsadida bir qator muhim mexanizmlarni joriy etish zarur.

Birinchidan, **prokurorni vakolatlari aniq sanksiyaviy cheklovlar bilan chegaralangan bo'lishi** lozim. Ya'ni, prokuror jazo tayinlash vakolatini barcha jinoyatlar bo'yicha emas, balki faqat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar doirasida amalga oshirishi kerak. Masalan, yo'l harakati qoidalarini buzish, kichik miqdordagi talon-toroj yoki boshqa yengil turdagi huquqbuzarliklar shunday tartibda ko'rilishi mumkin. Shu bilan birga, prokuror tomonidan tayinlanadigan jazolar ham qat'iy chegaralangan bo'lishi zarur. U uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash vakolatiga ega bo'lmasligi kerak. Vakolat asosan jarima, majburiy jamoat ishlari yoki qisqa muddatli ozodlikni cheklash kabi jazolar bilan chegaralanishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa insonning fundamental huquqlarini himoya qilish va sud vakolatining ustuvorligini saqlash qolishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, **ayblanuvchining faol roziligi va himoyachi ishtiroki majburiy tartibda ta'minlanishi** kerak. Chunki inson huquqlarining eng muhim kafolatlaridan biri bu shaxsning jarayonda ixtiyoriy ravishda ishtirok etishidir. Shu sababli jazo buyrug'i chiqarilishidan avval ayblanuvchi albatta advokat bilan maslahatlashgan bo'lishi lozim. Himoyachi prokuror taklif qilayotgan jazoning qonuniyligi, asoslanganligi va adolatliligini tushuntirib beradi hamda ayblanuvchining huquqlari buzilmasligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, ayblanuvchining ushbu tartibga roziligi yozma shaklda ifodalanishi zarur. Ya'ni, shaxs o'z ixtiyori bilan mazkur soddalashtirilgan tartibda ish ko'rilishiga va taklif qilinayotgan jazoga rozi ekanligini rasman tasdiqlashi kerak. Bu keyinchalik bosim yoki majburlash bo'lganligi haqidagi da'volarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, **prokuror qarori ustidan samarali sud nazorati o'rnatilishi** lozim. Sud nazorati korrupsiya va noqonuniy qarorlarning oldini olishdagi eng asosiy himoya vositalaridan biri hisoblanadi. Prokuror tomonidan chiqarilgan jazo buyrug'i sudga yuborilib, sudya tomonidan tekshirilishi kerak. Sudya ish materiallarini o'rganib chiqib, prokuror o'z vakolatidan chetga chiqmaganligini, dalillar yetarli ekanligini va qaror qonunga muvofiq qabul qilinganligini aniqlaydi. Faqat shundan keyingina qaror tasdiqlanishi mumkin. Shu bilan birga, ayblanuvchiga jazo buyrug'i ustidan e'tiroz bildirish huquqi ham berilishi lozim. Masalan, u muayyan muddat ichida hech qanday sabab ko'rsatmasdan turib qarorga norozilik bildira olishi kerak. Agar e'tiroz berilsa, jazo buyrug'i avtomatik ravishda o'z kuchini yo'qotadi va ish umumiy sud tartibida ko'rib chiqiladi. Bu esa shaxsning sud orqali himoyalani huquqini to'liq saqlab qoladi.

To'rtinchidan, **tizimni shaffofligini ta'minlash maqsadida raqamlashtirish mexanizmlarini keng joriy etish** zarur. Korrupsiyani oldini olishda ochiqlik va nazorat alohida ahamiyatga ega. Shu sababli jazo buyrug'i chiqarish jarayoni to'liq elektron tizimga integratsiya<sup>7</sup> qilinishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, barcha qarorlar **“Elektron**

<sup>7</sup> turli subyektlarni iqtisodiy, siyosiy, huquqiy yoki ijtimoiy jihatdan o'zaro hamkorlik asosida yagona tizimga birlashtirish jarayoni. Bu yerda huquqiy tizimlashtirish nazarda tutilgan.

**JPK**” yoki boshqa yagona axborot tizimi orqali rasmiylashtirilsa, yuqori turuvchi prokurorlar va sud organlari ularni real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu inson omilining subyektiv ta‘sirini kamaytiradi hamda noqonuniy aralashuv ehtimolini pasaytiradi. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan monitoring tizimi ham joriy etilishi mumkin. Agar ma‘lum bir prokurorni qarorlari tez-tez bekor qilinsa yoki ular ustidan ko‘plab e‘tirozlar tushsa, bu holat avtomatik ravishda **xizmat tekshiruviga** asos bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, prokurorga jazo buyrug‘i chiqarish vakolatini berish sud hokimiyatini cheklash yoki prokurorni sudya o‘rniga qo‘yish degani emas. Aksincha, bu jinoyat protsessida davlat resurslarini samarali taqsimlash va ishlarni tezkor ko‘rib chiqishga xizmat qiluvchi mexanizm bo‘lishi mumkin. Bunda sud yakuniy nazorat organi sifatida saqlanib qoladi, prokuror esa tezkor protsessual qaror taklif qiluvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Eng muhimi esa, ayblanuvchining huquqlari va erkinliklari ustuvor ahamiyat kasb etib, u o‘z taqdiri yuzasidan ongli ravishda tanlov qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

#### **Xulosa**

Umumiy xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, O‘zbekiston jinoyat protsessual qonunchiligida prokurorni rolini qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelgan. Uni faqat ayblovni qo‘llab-quvvatlovchi subyekt sifatida emas balki ba‘zi holatda nizolarni sudgacha hal qiluvchi institut sifatida ham ko‘rish kerak. Bu esa jinoyat protsessini zamonaviy talablarga moslashishi, ortiqcha byurokratik bosqichlarni qisqartirish va sudyalarning kuchini boshqa og‘irroq jinoyatlarga yo‘naltirgan holda tizim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shveysariya tajribasi esa bu borada muvozanatli va sinovdan o‘tgan model bo‘la oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. [SR 312.0 - Swiss Criminal Procedure Code of 5 October 2007 \(Criminal Procedure Code, CrimPC\) | Fedlex](#)
2. [22.09.1994. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi](#)
3. [Swiss Criminal Code of 21 December 1937](#)
4. [22.09.1994. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi](#)
5. [30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi](#)
6. [Federal Supreme Court of Switzerland - Wikipedia](#)
7. [Jinoyat protsessi. Maxsus qism. 2008..pdf - Google Drive](#)
8. [Human Rights in Criminal Proceedings | Oxford Law Pro | Oxford Academic](#)
9. [Swiss Criminal Procedure Code of 5 October 2007 \(Criminal Procedure Code, CrimPC\)](#)

10. [PowerPoint-Präsentation](#)
11. [Overview of Swiss Criminal Law | PDF | Prosecutor | Crimes](#)

